

**“TARIXIY TAFAKKUR” VA “KASBIY KOMPETENTLIK”
TUSHUNCHALARINING IJTIMOY-FALSAFIY VA PEDAGOGIK
TALQINI**

Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o'g'li

p.f.b.f.d (PhD) Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “tarixiy tafakkur” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy va pedagogik talqini bayon etilgan. Shuningdek maqolada, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur orqali takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Millat, taraqqiyot, tarixiy tafakkur, kasbiy kompetentlik, mahorat, vatanparvarlik, tushuncha, o'tmish.

KIRISH.

Har bir millatning taraqqiyotida uning o'tmishi va buguni o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro uzviylik, aloqadorlik o'ziga xos o'rin tutadi. Millat, xalqning o'tmishi “organik ravishda” uning buguni uchun poydevor sanaladi. Binobarin, xronologik rivojlanishning muayyan davrida ro'y bergan voqeya, hodisa va jarayon “izsiz yo'qolmaydi”, aksincha, yangi ko'rinish, shaklda, yanada takomillashgan holda namoyon bo'ladi. Millatning o'z o'tmishidan xabardor bo'lishi o'zi mansub bo'lgan mental xususiyatlar (milliy xarakter xususiyatlari) mohiyatini anglash, uning ijobiy tomonlarini boyitish, kamchiliklarini bartaraf qilish orqali istiqbolni belgilashga yordam beradi. “Milliy xarakter xislatlariga ega bo'lish milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash esa shaxsning o'zgalarga qaram, tobe bo'lmasligi hamda haq-huquqlarining kamsitilmasligini ta'minlaydi. O'zgalarga tobe bo'lmagan shaxs esa erkin, mustaqil bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z imkoniyatini namoyon eta oldi”. [1,4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son (8-oktyabr 2019-yil), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-son (2020-yil 5-oktyabr), "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son (2022-yil 29-yanvar) Farmonlari, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son (2020-yil 27-fevral) Qarori, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son (2022-yil 21-fevral) Qarori kabi me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur izlanishlar muayyan darajada xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

So'nggi yillarda "milliy xarakter" tushunchasiga muqobil tarzda "milliy mentalitet" atamasi ham qo'llanilmoqda. Ushbu tushuncha negizida quyidagi mazmunan ifodalanadi: "millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvati. Bu tushuncha millatga xos an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham o'z ichiga oladi. O'z navbatida u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo'ladi".[2,111] Demak, millatning o'z o'tmishidan yetarli darajada xabardorligi unda milliy mentalitet sifatlarini shakllantiradi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish jarayonini samarali tadqiq qilish, uning mohiyatini to'laqonli yoritish uchun ilmiy izlanish uchun "yadro" vazifasini bajaruvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ular orqali qanday mazmun yoritilishidan xabardor bo'lish ilmiy-pedagogik faoliyatni to'g'ri, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu bois tadqiqotning umumiy mohiyatidan kelib chiqqan holda quyida tayanch tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan talqin

qilish kutilgan natijaga erishish imkoniyatini yaratadi, degan fikrga kelindi: tafakkur, tarixiy tafakkur, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, takomillashtirish.

Tafakkur psixologik kategoriya sanaladi. Shu sababli ko'plab psixologik manbalarda tafakkur sezgi, idrok, tasavvur bilan bir qatorda atrof-muhit, borliqni o'rganish, uning mavjudligini anglashga xizmat qilishi ko'rsatiladi. Sezgi, idrok, tasavvur yordamida o'zlashtirilgan atrof-muhit, borliq, unda kechayotgan voqeya, hodisalarga xos belgi va sifatlar bosh miya yarim sharlarida o'ziga xos tahlil qilinib, ularning adekvatligi (to'g'riligi)ni tekshirish zarurligi to'g'risida xulosaga kelinadi. Ushbu xulosa shaxsning amaliy xatti-harakati, faoliyati orqali tekshirib ko'riladi va bu jarayon idrok yordamida nazorat qilinadi.

Falsafiy, psixologik va pedagogik manbalarda tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, oliy, eng yuqori darajasi sifatida talqin qilinadi. Darhaqiqat, tafakkur tushuncha, mulohaza, xulosa, tasavvur, nutq, motiv, motivatsiya hamda qiziqishning birligi, yaxlitligi asosida namoyon bo'ladi. "Tafakkur" tushunchasi juda qadimdan faylasuf, psixolog va tilshunoslar tomonidan tadqiqiy o'rganilgan bo'lsa ham hozirga qadar uning mohiyatini yoritishga yagona yondashuv shakllanmagan. Buning sababi shaxs tafakkurning murakkab psixologik jarayonda kechishidir.

Ijtimoiy, gumanitar sohalarda "tafakkur" tushunchasini sharhlashga nisbatan turli yondashuv mavjud. Xususan, shaxsning obrazlar, tasavvur, tushunchalarni namoyon qilish hamda bog'lashni aniqlab, ularning o'zgarish va qo'llash imkoniyatlarini aniqlab beruvchi bilish faoliyati va uning qobiliyatini belgilaydigan ongning ishlash jarayoni;[3,328] yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador, tahlil va sintez jarayonida voqyelikni bevosita va umumlashtirilgan aks ettirish jarayoni;[4,328] ob'ektiv olamning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan, til bilan ifodalanadigan aks etishi;[5,239] predmet, hodisalar to'g'risidagi tasavvurlarni yaratish, ular o'rtasidagi aloqalarni izlash va mavjud muammolarni yechish atrof-muhitni barcha ko'rinishlarda anglangan holda qabul qilish, shuningdek, ularning muhim jihatlarini aniqlash orqali atrof-muhitni barcha ko'rinishlarda anglangan holda idrok qilish;[6,53] muammoli vaziyatlarni,

masalalarni yechimini topish bilan bog'liq yangi bilimlar shakllanadigan yuqori darajadagi bilish jarayoni;[7,690] “yangi nazariya, g'oyalar yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish”:[8,303] inson ongining bilish ob'ektlari hisoblangan narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shakli;[9,80] individning voqyelikni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni;[10,223] atrof-muhitdagi voqyelikni nutq yordamida bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik protsess, sotsial sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Keltirilgan ta'riflardan anglanadiki, tafakkur, eng avvalo, ong mahsuli, uning yordamida atrof-muhit, borliqqa oid axborotlar tahlil qilinadi, sintezlanadi va muayyan xulosa chiqarilib, bu haqida til va nutq vositasida boshqalarga yetkaziladi. Tafakkur turli mazmundagi mavjud axborotlarning muhim jihatlarini aniqlash orqali ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, uzviy bog'liqni topishga, qolaversa, yangi nazariya va ta'limotlarning asoslanishi uchun xizmat qiladi. Mohiyatiga ko'ra tafakkurining amaliy qiymati shaxs tomonidan atrof-muhit, borliqqa oid axborotlarning idrok qilinishi, ya'ni, o'zlashtirilishi va unga tayangan holda faoliyatning tashkil qilinishi bilan belgilanadi.

Qayd etib o'tilganidek, tafakkur mavjud axborotlarga tayangan holda chiqarilgan xulosaning til, nutq yordamida ifodalanishi demakdir. Bu esa o'z navbatida shaxs tafakkurining namoyon bo'lishida til, shu jumladan, milliy til alohida ahamiyatga ega omil ekanini anglatadi.

A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'raevlarning fikrlariga ko'ra, “tafakkur” tushunchasining negizini fikr tashkil etadi. Lug'aviy jihatdan o'ylash, fikrlash, mushohada qilish va muhokama ma'nolarini bildiruvchi “fikr” tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha qo'llanilgan. Misol uchun, XV asrda “fikr” tushunchasiga sinonim bo'lgan “ong”, “aql”, “tafakkur” so'zlari bilan birga sof turkiy so'z “o'g” ishlatilgan. “O'git” so'zi ham ana shu atama negizida hosil qilingan. Bu o'rinda mualliflar yana bir muhim ma'lumotni keltiradilar. Unga ko'ra, Turk hoqonligida “o'g'ilik” muhim ahamiyatga ega bo'lgan saroy amallaridan biri sanalagan. Ushbu

amal egasi maslahatchilik, vasiylik vazifasini bajargan.[11,41]

Muayyan soha yoki kasblarga tegishlilik jihatidan “tafakkur” ma'lum sifatlarga nisbat berish bilan ifodalanadi. Chunonchi, pedagogik tafakkur, ijtimoiy tafakkur, siyosiy tafakkur, iqtisodiy tafakkur, moliyaviy tafakkur va boshqalar. Tafakkurning metodologik-konseptual mohiyati, ayniqsa, metodologik rejalashtirish hamda g'oyalarni qo'llab-quvvatlashning roli tobora o'sib borayotgan XX asrda aniq o'zgarishlar va fikrlash amaliyoti rivojlanishini yoritadi. Shunga ko'ra empirik jihatdan barcha faoliyat va amaliyot sohalarida tafakkur tobora chuqur o'rganilmoqda.

Mazkur tushuncha psixologik manbalarda keng yoritilgan atamalardan biri bo'lib, uning sezgi, idrok, tasavvur yordamida atrof-muhit bilan bevosita bog'lanishi, so'ngra voqyelikdagi narsa va hodisalarni, ularning belgi va sifatlarini bosh miya yarim sharlarida aks ettirish imkoniyatiga egaligi, mazkur aks ettirishning adekvatligi (to'g'riligi) insonning amaliy faoliyatida, tabiatni o'rganish va jamiyatni rivojlantirish jarayonida tekshirib borilishi, shuningdek, ong va aql-idrok yordamida uzluksiz ravishda nazorat qilib turilishi ta'kidlanadi.

Psixologik adabiyotlarda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari sifatida:

- 1) voqyelikni umumlashgan holda aks ettirish;
- 2) bog'lanishlarni bevosita aks ettirish;
- 3) so'z (nutq) orqali narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishdan iborat ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Tegishli manbalarning barchasida ham ushbu tushuncha inson aqliy faoliyati, ob'ektiv olam in'kosining “yuksak shakli” deya ta'riflanib, sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa hamda hodisalarning tafakkurda ongli ravishda aks etilishiga, tafakkur jarayonida fikrning vujudga kelishiga alohida urg'u beriladi. L.V.Zanina va N.P.Menshikova “tafakkur” tushunchasini pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan yoritarkan, uning pedagogga xos muhim sifatlardan biri, deya talqin qiladi. Ularning fikricha, bu tushuncha “pedagogning o'quvchilar xatti-harakatlari motiv (sabab)lari, ularning asosiy qiziqishlari, ehtiyojlari, shuningdek, ichki dunyolarini tushunishida aks etuvchi

tafakkuri” dir. Mazkur sifatga egalik tufayli pedagog turli vaziyatlarda muayyan masalalarni doimo o‘quvchilarning manfaatlari uchun hal qiladi, ular bilan pedagogik hamkorlikka erishadi.

Qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar tafakkur o‘z mohiyatiga ko‘ra dialektik xususiyat kasb etadi. Pedagogik tafakkuri shu jihatdan pedagog o‘quvchilarning xatti-harakatlari, xulqi va faoliyatlarida ro‘y berayotgan yangiliklarni ko‘ra oladi, o‘z faoliyatini o‘quvchilar shaxsi taraqqiyotidagi ziddiyatlarni anglashga, ularning yechimlarini topishga yo‘naltiradi.

Kishilik taraqqiyoti tarixining turli davrlarida urug‘, jamiyatning a'zosi bo‘lgan shaxsning muayyan sifatlarga egaligi uning ijtimoiy mavqeyini belgilab bergan. Agarda ibtidoiy tuzumda shaxsning jismoniy jihatdan kuchli va chaqqon bo‘lishi ov natijasiga o‘z ta'sirini o‘tkazgan, o‘z hududini dushmandan himoya qilishiga, urug‘doshlari, qabiladoshlari orasida obro‘ qozonishiga imkon bergan bo‘lsa, feodal ishlab chiqarish davrida shaxsning yer bilan samarali ishlay olishi, hisob-kitobni to‘g‘ri yuritishi, kustar xo‘jalikni tashkil qilish va uni muvaffaqiyatli yurita olishi uning aqliy, jismoniy salohiyatini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgan. Sanoatlashuv davrida esa malakali ishchiga ega bo‘lish, u tomonidan kasbiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga nisbatan kuchli ehtiyoj shakllangan.

Bu davrda mutaxassisning zimmasidagi asosiy vazifa – texnikani boshqarish, zarur vaziyatlarda uning funksional tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritishdan iborat bo‘ldi. Ishchi kuchining asosiy qismini kichik mutaxassislar tashkil qilib, texnik jarayonga kiritiladigan o‘zgarish va qayta o‘zgartirishlar, asosan, oliy ma'lumotli muhandislar, novatorlar tomonidan amalga oshirildi, shaxsning intellektual salohiyati tovar sifatida baholanmadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab, insoniyat shaxsning intellektual salohiyati yuqori baholanib, jahonning yirik ishlab chiqaruvchilari unga ega shaxslarni izlashni boshladi. Chunki taraqqiyot mutlaqo yangi davr – kompyuter va axborot texnologiyalari erasiga qadam qo‘ya boshladi. Mazkur era insoniyatning global muammolar – resurs (dehqonlik va yashash uchun yer, oziq-ovqat)lar yetishmasligi, ichimlik suvining tanqisligi, demografik muammolar, global isish – “issiqxona

effekti” kabi umumbashariy muammolarga duch kelishi fonida davom etmoqda. Yana bir muhim muammo bor-ki, u turli millat va elatlar o‘rtasida marginal axloqni qaror toptirish, ularni o‘z tarixi, o‘tmishidan mahrum qilishga urinishdir.

Tarixiy voqea-hodisalarning mohiyatini anglashda ularga oid ma'lumotlarni yodda saqlab qolish hamda tarixiy material mazmunini ongda qayta tiklashdan mustaqil izlanish olib borish, muammoli vaziyatni hal qilish, loyihaviy va tadqiqotchilik vazifalarini hal qilish orqali o‘zi uchun yangi bilimlarni hamda kompetensiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadigan ijodiy tafakkurga egalik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixni anglash tushunchasi turli davrlarda mutaxassislar, olimlar va boshqa ma'rifatparvarlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Natijada tarixiy bilim va tarixni anglashning xilma-xil shakllari yuzaga keldi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR.

Yuqorida tahlil etilgan muammo yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Bugungi kunda globallashtirilgan jamiyatda ommaviy ahborot vositalarning o‘rni beqiyos. Shuni inobatga olgan holda ommaviy ahborot vositalari, televidiniyada boy tariximizga oida ko‘rsatuvlar, eshittirishlar sonini va sifatini oshirish;

2. Ta’lim muassasalarida (maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktab, texnikumlar, kasb-hunar maktablari, oliy o‘quv yurtlarida) davra suhbatlarini olib borish;

3. Ta’lim muassasalarida tarix darslarini sifat darachasiga olib chiqish;

4. Yosh avlodni vatanga muhabbat, uning o‘tmishi, buguni va kelajagiga daxldorlik hissini namoyon qilish masalalariga chuqurroq e’tibor berish va ma’naviy tadbirlar soni va sifatini oshirish;

5. Milliy tariximizni aks ettirgan serailar va kinofilmlar yaratish va bugungi kun yoshlari qiziqishlariga hamohang tarzda yaratish kabi takliflarni ilgari sursak maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

XULOSA.

Pedagogika nazariyasida gnostik nuqtai nazaridan talabalarda tarixiy tafakkur hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari u yoki bu mustaqil tadqiqotlarning ob'ektlari sifatida tanlangan. Ilmiy-pedagogik jarayonlarning mohiyati “tafakkur”, “tarixiy tafakkur”, shuningdek, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik” tushunchalari negizida ochib berilgan. Biroq, tarixiy tafakkur hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi integral tarzda o‘rganilmagan.

Tadqiqot muammosini integral o‘rganish bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash orqali tegishli yo‘nalishda o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Qolaversa, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish mazmuni va ustuvor tamoyillarini aniqlashtirish uchun “poydevor” vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonova M.B. Badiiy adabiyotlar vositasida o‘quvchilarda milliy xarakter xislatlarini rivojlantirish (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rta va yuqori sinflari misolida). – Namangan: 2023. – 4-b.

2. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha, tamoyillar va atamalar / Qisqa izohli tajribaviy lug‘at. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 111-b.

3. Kemerov V.Ye., Matskevich V.V. Подготовка электронной публикации и общая редакция / Ответственный ред. А.В.Агеев. Центр гуманитарных технологий // <https://gtmarket.ru/concepts/7007>.

4. Umumiy psixologiya / Pedagogika institutlari uchun darslik. A.V.Petrovskiy va boshqalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 328-b.

5. Tulenov J., G‘ofurov Z. Falsafa. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 239-b.

6. Rozin V.M. Что такое мышление? (мыслительные практики и концептуализации в философии и психологии) // Ж. Идеи и идеалы – Novosibirsk: 2012. - № 1 (11). Т. 1. – В. 53.

7. Kupriyanova D.V. Формирование исторического мышления на уроках www.pedagoglar.org

истории // молодой ученый – Chita: 2016. - № 27 (131). – В. 690.

8.Falsafa. Qisqacha izohli lug'at / Mual.: M.Abdullaeva va boshq. Mas'ul muharrir A.Jalolov. – T.: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2004. – 303-b.

9.Umumiy psixologiya / Pedagogika institutlari uchun darslik. A.V.Petrovskiy va boshq.– T.: O'qituvchi, 1992. – 80-b.

10.Psixologiya. Lug'at. – M.: Misl, 2008. – B. 223

11.Ibrohimov A, Sulonov X, Jo'raev N. Vatan tuyg'usi.– T.:O'zbekiston,1996.41-b